



THE CONSTRUCTION HISTORY OF THE GREAT FERGANA CANAL: SOVIET IDEOLOGY AND PROPAGANDA

Saidrasul Khusanov

Lecturer

Fergana State University

Email: said0757@mail.ru

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Great Fergana Canal, Soviet irrigation, hashar, hydraulic engineering, history of Central Asia.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article explores the historical construction process, technical parameters, and ideological foundations of the Great Fergana Canal based on archival documents and academic sources. Built in 1939 within just 45 days through a mass mobilization campaign known as hashar, the canal traverses the territories of Uzbekistan, Tajikistan, and Kyrgyzstan, becoming one of the region's most significant irrigation systems. Despite severe shortages of machinery and technology, the project engaged 160,000 workers and stands today as a monumental Soviet hydrotechnical achievement.

KATTA FARG‘ONA KANALI QURILISH TARIXI: SOVET MAFKURASI VA TASHVIQOTI

Saidrasul Xusanov

o‘qituvchi Farg‘ona davlat universiteti

E-mail: said0757@mail.ru

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: JST Appellatsiya organi, nizolarni hal qilish, xalqaro savdo, pretsedent, obiter dicta, rivojlanayotgan davlatlar, institutsional inqiroz, savdo nizolari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Katta Farg‘ona kanalining tarixiy qurilish jarayoni, texnik ko‘rsatkichlari va siyosiy-mafkuraviy asoslari arxiv hujjatlari va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Kanal 1939-yilda, 45 kun ichida xalq hashar yo‘li bilan bunyod etilgan. U O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston hududlari orqali o‘tadi hamda mintaqaning yirik sug‘orish tizimiga aylangan.

Qurilishda 160 ming kishi, texnika vositalari tanqisligi sharoitida bitkazilgan gidroinshoot. ta'kidlaydi.

ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА БОЛЬШОГО ФЕРГАНСКОГО КАНАЛА: СОВЕТСКАЯ ИДЕОЛОГИЯ И ПРОПАГАНДА

Саидрасул Хусанов

Преподаватель

Ферганский государственный университет

Электронная почта: said0757@mail.ru

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Большой Ферганский канал, советская ирригация, хашар, гидротехническое сооружение, история Средней Азии.

Аннотация: В данной статье на основе архивных документов и научных источников анализируются исторический процесс строительства, технические характеристики и идеологические основы Большого Ферганского канала. Канал был построен в 1939 году всего за 45 дней методом народной мобилизации — хашар. Он проходит по территории Узбекистана, Таджикистана и Кыргызстана и стал одной из крупнейших ирригационных систем региона. Несмотря на острую нехватку техники, в строительстве приняли участие 160 000 человек, и канал стал выдающимся гидротехническим сооружением советской эпохи.

Kirish

Katta Farg'ona kanali – Farg'ona vodiysidagi eng yirik gidrotexnika inshootlaridan biri bo'lib, Usmon Yusupov nomi bilan ataladi. Asosiy o'zani uzunligi 350 km bo'lib, O'zbekiston (283 km), Tojikiston (62 km) va Qirg'iziston (13 km) hududidan o'tadi. Kanalning qurilishi Sovetlarning paxta yetishtirish salohiyatini kengaytirish siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, xalq hashari, mafkuraviy targ'ibot va kam sonli texnika vositalari imkoniyatlarning uyg'unligida amalga oshirilgan.

Sovet mafkurasi va tashviqoti

1930-yillar oxirlarida Sovet davlati kanal qurilishini “xalq g'alabasi” sifatida targ'ib qildi. Usmon Yusupov tashabbusi bilan suv ta'minoti masalasi milliy darajada ko'tarildi. “Pravda Vostoka” gazetasi 1939-yil 17-sentyabrda kanal orzusi ro'yobga chiqayotganini e'lon qilgan. Bu jarayon orqali suv inshooti Sovet taraqqiyotining ramziga aylandi va Stalin boshchiligidagi siyosat Markaziy Osiyoga g'amxo'rlik sifatida ko'rsatildi. Katta Farg'ona kanalining qurilishi 1939-yilda atigi 45 kun ichida yakunlangani nafaqat muhandislik, balki ideologik-siyosiy g'alaba sifatida ham

ko‘rilgan. Bu loyiha, Teichmann (2007) va Stronski (2010) asarlarida qayd etilishicha, Sovet markaziy hokimiyatining Markaziy Osiyoni “ma’rifiylashtirish” va iqtisodiy ixtisoslashtirish orqali moslashtirish harakati edi.

1931-“Hasharchilar” deyiluvchi xalq ommasi bu jarayonda siyosiy mafkura ta’sirida safarbar etildi, ularning ishtiroki “xalq irodasi” emas, tashviqot va majburiy jamoaviylik bilan ta’minlandi (Teichmann, 2009; Carlisle, 2019).

Sovet tashviqoti bu qurilishni “xalq g‘alabasi” deb atadi. Usmon Yusupov tomonidan aytilgan g‘oyalar: “...endi hovuz emas, balki har bir sovet fuqarosi uchun unumli suv infratuzilmasi bo‘ladi...” – (Pravda Vostoka, 1939).

Shu bilan birga, kino va fotografiya (masalan, Maks Penson) yordamida kanal “Sotsialist mehnatining namunasi” sifatida butun Ittifoqqa namoyish etilgan. Pavlenko va Eyzenshteyn ssenariysi orqali “Farg‘ona kanali” filmi xalqning “tarixiy jasorati” ni targ‘ib qilgan (Pavlenko & Eisenstein, 1940).

Targ‘ibot “Stalin tufayli kanal bor!”, “Farg‘ona vodiysi – sotsialistik sug‘orishning yutug‘i!”, “Mehnat fronti g‘alabasi!” shiorlari ostida olib borilgan. Biroq, haqiqat shuki, C. Teichmann (2007, 2009) shuni isbotlaydiki, bu tashviqotlar xalqning haqiqiy irodasini emas, markazdan boshlangan mafkuraviy bosimni aks ettirgan. Suv infratuzilmasi bilan bog‘liq loyihalar Sovet Ittifoqining “madaniy mustamlakachilik” dasturining ajralmas qismi edi. “...kanal qurilishi orqali sovet hokimiyati o‘zining siyosiy kuchini nafaqat texnik, balki mafkuraviy jihatdan ham tasdiqlamoqchi edi.” (Comparativ, 2009).

Qurilish tafsilotlari va texnik ko‘rsatkichlar. 1939-yilda, atigi 45 kun ichida 160 mingdan ortiq kishi ishtirokida Katta Farg‘ona kanali qurib bitkazildi. Qurilish davomida 17,8 million m³ tuproq chiqarilgan bo‘lib, faqat 1,7 million m³ mexanizatsiyalashgan. 14 ekskavator, 245 traktor va 420 avtomashinadan foydalanildi. 45 yirik va 275 mayda gidroinshoot barpo etildi. Kanalning umumiy suv o‘tkazish quvvati Norin, Qoradaryo va So‘x daryolaridan 532 m³/s ni tashkil etgan.

Milliy manbalar va xalq ishtirokining real manzarasi, Katta Farg‘ona kanali qurilishi nafaqat Sovet hukumati tashabbusi, balki o‘zbek xalqining ijtimoiy ongidagi “hashar” tushunchasi bilan ham uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgan. UZA.uz axborot agentligining 2024-yilgi maqolasida ta’kidlanishicha, kanal qurilishida 17,8 million m³ tuproq qazilgan, 45 yirik va 275 mayda inshootlar barpo etilgan. Qurilishda 14 ekskavator, 245 traktor, 420 yuk mashinasi, 101 ko‘prik, 258 suv chiqaruvchi inshoot, 9 to‘g‘on va 8 akveduk ishlatilgan. Ushbu raqamlar milliy manbalar bilan xalq xotirasining uyg‘unlashuvini ifodalaydi.

Ushbu manbada keltirilishicha, qurilishda qatnashganlarning 90 foizidan ortig‘i oddiy fuqarolar bo‘lib, ular bu jarayonga siyosiy tashviqot emas, balki real suv ta’minotiga bo‘lgan

ehtiyoj tufayli kirishgan. Bu esa shuni anglatadiki, siyosiy tashviqot bilan birga tabiiy zarurat ham xalqni bu loyiha atrofida birlashtirgan asosiy omil bo'lgan.

UZA.uz manbasida ta'kidlanganidek, bugungi kunga kelib kanaldan 500 ming gektardan ortiq yerlar sug'oriladi. Bu nafaqat agrar iqtisodiyot, balki ichimlik suvi va infratuzilma ta'minoti uchun ham asosiy resurs sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Katta Farg'ona kanali – bu nafaqat sug'orish inshooti, balki Sovet davrida hashar an'analari va siyosiy boshqaruvning uyg'unligini namoyish etgan tarixiy yodgorlikdir. Atigi 45 kunda qurib bitkazilishi o'sha davrning tashkilotchiligi va xalq irodasining kuchini ifodalaydi. Hidroinshoot faqatgina O'zbek xalqining fidokorligi namunasi emas, balki Sovet siyosiy mafkurasining diqqat markazidagi loyihalardan biri edi. Hasharchilik ruhiyati, texnik cheklovlar va siyosiy tashviqot — bularning barchasi arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarda yaqqol ifodalanadi. Bugun esa u o'z tarixiy merosi bilan suv resurslarining qiyin muammolarini eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teichmann, C. (2007). Canals, cotton, and the limits of de-colonization in Soviet Uzbekistan, 1924–1941. *Central Asian Survey*, 26(1), 1–23. <https://doi.org/10.1080/02634930802018240>
2. Rakhmatullaev, S., Huneau, F., & Celle-Jeanton, H. (2013). Water reservoirs, irrigation and sedimentation in Central Asia: A first-cut assessment for Uzbekistan. *Environmental Earth Sciences*, 70(6), 2451–2462. <https://doi.org/10.1007/s12665-012-1802-0>
3. Dukhovny, V. A., Sokolov, V. I., & Ziganshina, D. R. (2013). Integrated water resources management in Central Asia, as a way of survival in conditions of water scarcity. *Quaternary International*. <https://doi.org/10.1016/j.quaint.2013.04.006>
4. Brite, E. B. (2018). The hydrosocial empire: The Karakum River and the Soviet conquest of Central Asia in the 20th century. *Journal of Anthropological Archaeology*, 50, 69–85. <https://doi.org/10.1016/j.jaa.2018.04.003>
5. Spoor, M., & Thiemann, L. (2025). Hydro-Authoritarianism: Mega-Engineering the (Semi-) Arid Regions of Central Eurasia and China. *Europe-Asia Studies*. <https://doi.org/10.1080/09668136.2024.2441711>
6. Xenarios, S., Shenhav, R., & Abdullaev, I. (2018). Current and future challenges of water security in Central Asia. In *Global Water Security Issues* (pp. 63–84). Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-10-7913-9_5

7. Zhiltsov, S. S., Zhiltsova, M. S., & Medvedev, N. P. (2018). Water resources of Central Asia: Historical overview. In *Water Politics in Central Asia* (pp. 55–70). Springer. https://doi.org/10.1007/698_2018_358

8. Högselius, P. (2022). The hidden integration of Central Asia: The making of a region through technical infrastructures. *Central Asian Survey*, 41(1), 18–34. <https://doi.org/10.1080/02634937.2021.1953963>

9. Rakhmatullaev, S., & Abdullaev, I. (2015). Transformation of water management in Central Asia: From state-centric hydraulic mission to socio-political control. *Environmental Earth Sciences*, 74(2), 735–748. <https://doi.org/10.1007/s12665-013-2879-9>

10. O'Hara, S. L. (2000). Lessons from the past: Water management in Central Asia. *Water Policy*, 2(4), 365–384. [https://doi.org/10.1016/S1366-7017\(00\)00010-6](https://doi.org/10.1016/S1366-7017(00)00010-6)

11. Xusanov, S. (2024). The Construction of the Big Fergana Canal – The Real Courageous Example of Uzbek People. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 4(6), 103–110. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607889>

12. <https://platina.uz/o'z/2023/6/3/84-yil-avval-xalqimizni-sinovdan-otkazgan-45-kun-tarixi>.

13. “Great Fergana Canal” (en-US). Seventeen Moments in Soviet History (2015-yil 18- iyun). Qaraldi: 2018-yil 27-may.

14. "Horizon" by Said Ahmed. Said Ahmadning “Ufq” asari 1976

15. <https://archive.uz/post/katta-fargona-kanali-qurilishi-ozbek-xalqining-haqiqiy-jasorat-namunasi>.

16. Usmanxodzhaev V., Kuzmin M., Bolshoy Fergansky canal name Usmana Yusupova, T., 1972. – С. 67. Усманходжаев В., Кузьмин М., Большой Ферганский канал имени Усмана Юсупова, Т., 1972. – С. 67.